QABUL QILISH BO'YICHA YO'RIQNOMA
Oziq -ovqatga biologik faol qo'shimcha
Ericon Clausii 2 M

Ericon Clausii 2 M
Bacillus clausii sporalari suspenziyasi
Ericon Clausii 2 M
Tarkibi:
Har 5 ml peroral suspenziya quyidagilarni saqlaydi:
Bacillus clausii ELBC004 sporalari IHS -2x10^9
Tozalangan suv IP – kerakli miqdorda

Farmakologik tasnifi
Probiotik
Farmakologik ta'siri
Ericon Clausii 2 M- tozalangan suvda Bacillus clausii sporalarining suspenziyasi. Ushbu sporalar ichak bakterial florasi kasalliklarini davolashda diareyaga qarshi foydali bo'lgan mikroorganizmlarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, ular sekretor immunoglobulin-A ning immun faolligini ham modulyatsiya qiladi.
Sporalarning bir nechta antibiotiklarga chidamliligi ularni boshqa patogenlarni antibiotiklar bilan davolashda kon'ugant sifatida ishlatishga imkon beradi. Ichakning normal ichak florasi zararli bakteriyalarga qarshi to'siq bo'lib xizmat qiladi. Ericon Clausii 2 Mantibiotiklar yoki kimyoterapiya preparatlari bilan davolash natijasida buzilgan ichak florasining muvozanatini tiklaydi va shu bilan vitamin tanqisligining keyingi holatlarini tuzatishga yordam beradi.

KO'RSATMALAR
Ericon Clausii 2 M ichak bakterial florasining buzilishida yordam berish va oldini olish uchun ishlatiladi.

QARSHI KO‘RSATMALAR
Faol moddalarga yuqori sezuvchanligi mavjud odamlar qabul qilmasligi kerak.

OGOHLANTIRISH
Dietolog bilan maslahatlashmasdan, ushbu dozalarni oshirmang. Faqat qisqa muddatli davolanish uchun foydalaning.

O'ZARO TA'SIRLARI
Bacillus clausii sporalarining oziq-ovqat yoki dorilar bilan o'zaro ta'siri ma'lum emas.

DOZALASH
Dietolog ko'rsatganidek.

MAHSULOT
Qabul qilishdan oldin yaxshilab silkiting. Mini flakonni ochish uchun qopqoqning yuqori qismini burang va yechib oling. Agar Ericon Clausii 2 M mini flakonlarida mikrozarrachalar yoki qoldiqlar topilsa, bu mahsulot buzilgan degani emas. Bu zarralar oddiygina Bacillus clausii sporalarining to‘plamidir. Kremsimon oq suspenziya olish uchun yaxshilab silkiting.
MAHSULOTNI QABUL QILISH BO'YICHA YO‘RIQNOMA
Mahsulotni ochgandan keyin, suspenziyani ifloslantirmaslik uchun qisqa vaqt ichida qabul qiling.

QABUL QILISH BO'YICHA TAVSIYALAR:
Bolalar: kuniga 1-2 mini-flakon
Kattalar: kuniga 2-3 mini-flakon

NOJO‘YA TA'SIRLAR VA MAXSUS EHTIYOT CHARORLARI
Hech qanday nojo'ya ta'sirlar haqida xabar berilmagan. Agar biron bir nojo‘ya ta'sir kuzatilsa, darhol dietologingizga xabar bering.

DOZANI OSHIRIB YUBORISH
Ericon Clausii 2 M ning dozalarini oshirib yuborganda odatda istalmagan ta'sirga olib kelmaydi. Dozani oshirib yuborilganda va nojo‘ya ta’sir holatlari mavjud bo‘lsa, dietolog bilan maslahatlashing.

ISHLAB CHIQARISH SHAKLI
Ericon Clausii 2 M 10 x 5 ml li ajratib olinadigan mini-flakonlarda chiqariladi.

SAQLASH SHARTLARI VA YAROQLILIK MUDDATI
25°C dan yuqori bo'lmagan haroratda quruq joyda saqlang.
To'g'ri saqlangan va mini-flakonlar buzilmagan bo'lsa, Ericon Clausii 2 M ishlab chiqarilgan kundan boshlab 24 oy davomida qabul qilish mumkin.
MAHSULOTNI BOLALAR QO'LI YETMAYDIGAN JOYDA SAQLANG

ISHLAB CHIQARUVCHI VA SOTUVCHI:
ELMED Life Sciences Pvt.Ltd
Plot no. 36/C, Phase-V, IDA Cherlapally,
Hyderabad, Telangana, Hindiston — 500051

ARIZACHI
«SHAYANA FARM» MCHJ
Toshkent Shahar, Olmazor tumani, Qora-Qamish dahasi, Gulsaroy ko’chasi, 19 uy.
Tel.: +99871 207-21-91/92/93/94/96

Izoh va savollar bo‘yicha: help@elmedprobiotics.com